

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA ASTRONOMIYA TA'LIM STANDARTINING TUTGAN O'RNINI

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi mutaxassisligi magistranti, NavDPI

Abdisalomova Sanobar Nurali qizi

Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabasi, NavDPI

Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), dots. D.I.Kamalova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7443529>

Annotatsiya. *Uzluksiz ta'lim tizimini izchil rivojlantirish davlat tomonidan strategik ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va ilmiy tadqiqot salohiyatini kuchaytirish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, oliy ta'lim mazmun-mohiyatini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Uzluksiz ta'lim tizimidagi Fizika va astronomiya ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq, shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur maqola astronomiya fanining mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida tutgan o'rniga bag'ishlan.*

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, astronomiya. strategik vazifa, fan, pedagogik jarayon.*

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СТАНДАРТА АСТРОНОМИИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Последовательное развитие системы непрерывного образования определено государством в качестве стратегического приоритета. Сегодня в сфере высшего образования большое внимание уделяется укреплению материально-технической базы учебных заведений и научно-исследовательского потенциала, повышению квалификации профессорско-преподавательского состава, совершенствованию содержания и сущности высшего образования. Физико-астрономическое образование в системе непрерывного образования является составной частью педагогического процесса и служит для воспитания человека в соответствии с общими целями образования. Данная статья посвящена месту астрономии в системе непрерывного образования нашей страны.*

Ключевые слова: *дополнительное образование, астрономия. стратегическая задача, наука, педагогический процесс.*

THE ROLE OF THE EDUCATIONAL STANDARD OF ASTRONOMY IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION

Abstract. *Consistent development of the system of continuous education is defined by the state as a strategic priority. Today, in the field of higher education, much attention is paid to strengthening the material and technical base of educational institutions and research potential, improving the qualifications of the teaching staff, improving the content and essence of higher education. Physical and astronomical education in the system of continuous education is an integral part of the pedagogical process and serves to educate a person in accordance with the general goals of education. This article is devoted to the place of astronomy in the system of continuous education in our country.*

Keywords: *additional education, astronomy. strategic task, science, pedagogical process.*

Bugun mamlakatimizda biz yoshlarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlarni ko'rib ko'zimiz quvonchga, qalbimiz g'ururga to'ladi. Biz yoshlarning o'qib-o'rganishimiz, bilim saviyamizni yanada oshirishimiz, yuqori darajadagi malaka va ko'nikmaga ega bo'lishimiz uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodlarini namoyon etishlari uchun ko'rik-tanlov va festivallar, loyiha va grantlar, olimpiada va sport musobaqalari, seminar va konferensiyalar tashkil etib kelinmoqda. Bu ketma-ketlikni uzoq davom ettirishimiz mumkin, albatta. Bu esa yoshlarga Davlat e'tibori qaratilganligining yorqin dalilidir.

Bugun mamlakatimiz yoshlarining o'tkir zehni, bilimga chanqoq, yuksak ma'naviyatli, kelajakning haqiqiy egalari ekanligiga dunyo davlatlari ham tan bermoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarimizdan, davlatning har tomonlama raqobatbardosh va ehtiyoj katta bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdagi o'rni, uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi va barkamol avlodni tarbiyalashning istiqbollarini belgilash borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham tan olib kelinmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimini izchil rivojlantirish davlat tomonidan strategik ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu jiddiy yondashuv va fuqarolarning sifatli ta'lim olishlari borasidagi huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi **“Ta'lim to'g'risida”** gi qonunda o'z ifodasini topgan.

Matematika, astronomiya, tibbiyot sohasida ajdodlarimizning olib borgan ishlari bugungi kungacha o'zining mazmun va mohiyatini yo'qotmaganligi, fan va ta'limning yutuqlari ham shular orqali davom etayotganligi, dunyoga mashhur Xorazmiy (“nol” ni kashf etgani), Beruniy (Kolumbdan 500 yil oldin Amerika qit'asi borligini bashorat qilgani), Mirzo Ulug'bek (XV asrda osmon xaritasini va eng yirik rasadxonani yaratib, shu orqali minglab yulduzlarning joylashuvini aniqlagani) ning faoliyatlarini ham jahon tan olganligini ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng, juda qisqa vaqt ichida dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan mustahkam o'rin egallay oldi. 31 yillik qisqa fursat ichida har sohada bo'lgani kabi, ta'lim va fan sohasida ham erishilgan yutuqlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston tanlagan demokratik yo'l har tomonlama manfaatli va samarali ekanligi ham bugun yurtimizning jahonda tenglar ichra teng bo'lishida muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va ilmiy tadqiqot salohiyatini kuchaytirish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, oliy ta'lim mazmun-mohiyatini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Ta'lim sohasidagi davlat dasturlari nufuzli xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, ilg'or ilmiy va ta'lim markazlari, rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli, mustahkam hamkorlikda amalga oshirilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda “O'zbekistonda yoshlar asosiy qismni ya'ni, 65% ni tashkil etar ekan. Yurtimizda yoshlar uchun yaratib berilgan sharoitlarni ko'rib, o'quvchi va talabalarning zamonaviy kompyuter texnikasidan foydalanish qobiliyatlari kuchli, chet tillarida bimalol ona tillaridagidek suhbat qura olishlarini zamonning o'zi talab qilib turibdi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi Fizika va astronomiya ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq, shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to'plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasiga ko'tarishga, uni takomillashtirishga

jiddiy e'tabor berish zarurligi ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashdan kelib chiqib, "Ta'lim to'g'risida" gi qonun yangidan tasdiqlandi. Shu munosabat bilan barcha o'quv predmetlari qatori Fizika va astronomiya ta'limi oldiga ham aniq vazifalar qo'yildi.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonunga muvofiq:

1. Uzluksiz ta'lim tizimida Fizika va astronomiya ta'limi konsepsiyasini qayta ishlab chiqish;

2. Uzluksiz ta'lim tizimida Fizika va astronomiya ta'limi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda umumiy standartini ishlab chiqish taqozo qilinadi;

Fizika va astronomiya ta'limi standarti – Fizika va astronomiya o'quv predmetlarining majburiy mazmunini belgilab beradi. Uzluksiz ta'lim tizimida Fizika va astronomiya ta'limi standarti, Fizika va astronomiya ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni – ta'limning uzluksizligi, tashkiliy shakllari, usullari, vositalari va boshqalarni qayta ko'rib chiqish mezonini hisoblanadi.

Fizika va astronomiya ta'limi konsepsiyasiga muvofiq, Fizika va astronomiya ta'limining yo'nalishi va maqsadi, yosh avlodning Fizika va astronomiya fani asoslarini chuqur egallashi, talabalarning siyosiy-g'oyaviy, estetik, ekologik tarbiyasi, tabiatga va jamiyatga bo'lgan ijobiy munosabati, qadimgi yashab ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar, keyingi yillarda olimlarimizning Fizika va astronomiya sohasidagi erishgan yutuqlariga oid o'quv materiallari bilan tanishtirib borish orqali vatanga bo'lgan e'tiqodini shakllantirish, kasbga yo'naltirish ko'zda tutiladi.

Fizika va astronomiya ta'limi standarti Fizika va astronomiya fanlarini o'qitishda talabalarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmunining negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek, talabalar tayyorgarlik darajasidagi bilim va amaliy faoliyatlari darajasi me'yorini belgilaydigan me'zon bo'lib hisoblanadi.

Fizika va astronomiya ta'limi standarti – uzluksiz ta'lim tizimi uchun tuziladigan Fizika va astronomiya ta'lim dasturi va o'quv materiallarining hajmini belgilab beruvchi me'zon bo'lib xizmat qiladi.

Fizika va astronomiya ta'limi standarti – Fizika va astronomiya ta'limida talabalarning davlat va jamiyat oldidagi vazifalari, burchi va javobgarligini qay darajada his qilishlarining me'zoni bo'lib ham hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida fizika va astronomiya ta'limi standarti – Fizika va astronomiya o'quv predmetidan talabalarga beriladigan bilimlar miqdori, ular egallaydigan bilim, hosil qiladigan amaliy ko'nikma va malakalar hajmini ko'rsatuvchi me'yor bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimidagi fizika va astronomiya ta'limi negizini belgilovchi ko'rsatkichlar talabalarning fizika va astronomiya ta'limidan tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasidan iborat bo'lgan hujjat tariqasida tasdiqlanadi va xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida talabalar oladigan bilimlarining zarur hajmiga asos soladi, ulardagi tashkilotchilik qobiliyat, malakalari va amaliy tajribasini rivojlantiradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. (O'RQ-637) Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 23-sentabr. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4884 son qarori. Toshkent. 6-noyabr. 2020.
3. Камалов И.Р., Камалова Д.И. «Астрономия фанини ўқитишда инновацион педагогик технологияларни қўллаш» электрон ўқув қўлланмаси учун ЭҲМ дастур. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги. №DGU 06406. 15.05.2019.